

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MA’NAVIY-AXLOQIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK OMILLARI**Nazarova Zulayxa Turabovna**

Kattaqurg‘on davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa fanlari doktori (PhD) dotsent
zulayxanazarova70@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda ijtimoiy-pedagogik omillarning ta’siri, ta’lim mazmunining ahamiyati, demokratik munosabatlar, hamda loyihaviy yondashuvning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati hamda bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy faolligi va refleksiv qobiliyatlari haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-pedagogik omillar, oilaviy muhit, axloqiy barqarorlik, kasbiy mas’uliyat, insonparvarlik.

**СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ
ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Аннотация. В статье рассматривается влияние социально-педагогических факторов на формирование духовно-нравственной идентичности будущих учителей, значение содержания образования, демократических отношений, а также социально-педагогическая значимость проектного подхода, личная активность будущего учителя и его рефлексивные способности.

Ключевые слова: социально-педагогические факторы, семейная среда, нравственная устойчивость, профессиональная ответственность, гуманизм.

**SOCIO-PEDAGOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF SPIRITUAL
AND MORAL IDENTITY OF FUTURE TEACHERS**

Abstract. The article discusses the influence of socio-pedagogical factors on the formation of the spiritual and moral identity of future teachers, the importance of educational content, democratic relationships, as well as the socio-pedagogical significance of the project-based approach, and the personal activity and reflective abilities of the future teacher.

Keywords: socio-pedagogical factors, family environment, moral stability, professional responsibility, humanism.

Kirish (Introduction). Ma’naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda ijtimoiy-pedagogik omillarning ta’siri faqat tashqi shart-sharoitlar bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ichki dunyosi, uning ehtiyojlari, qiziqishlari va qadriyatli yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsida mazkur identitetning qaror topishi, avvalo, uning ta’lim jarayonida faol

sub'yekt sifatida ishtirok etishi, o'z "Men"ini kasbiy va axloqiy nuqtai nazardan anglashi bilan bog'liqdir. Shu jihatdan qaralganda, ijtimoiy-pedagogik omillar faqat ta'sir etuvchi muhit emas, balki shaxsning o'zi tomonidan idrok etiladigan, baholanadigan va qayta ishlanadigan ijtimoiy tajriba sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxs axloqiy xulq-atvorni kuzatish, taqlid qilish va mukofot-jazo mexanizmlari orqali o'zlashtiradi [6; 72-b.].

Bu nazariya ma'naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda ijobiy namuna, rol modellari va ijtimoiy muhitning ta'sirini ilmiy asoslab beradi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilar uchun ma'naviy yetuk, mas'uliyatli va fidoyi pedagoglarning faoliyatini o'rganish va ularni namuna sifatida qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ma'naviy-axloqiy identitetni ilmiy-metodologik jihatdan asoslashda psixologiya fanining yutuqlari ham muhim o'rin tutadi. Eriksonning idenitet nazariyasida shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri sifatida axloqiy va ijtimoiy o'zlikni shakllantirish jarayoni ko'rsatiladi. Uning fikricha, inson hayot davomida turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirib, o'z qadriyatlari va aqsadlarini aniqlab boradi, bu esa identitetning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.[5.108]. Pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy identitetini shakllantirishda ta'lim mazmunining ahamiyati alohida o'rin tutadi. Ta'lim dasturlariga ma'naviyat, axloq, kasbiy etika, fuqarolik mas'uliyatiga oid fan va modullarning kiritilishi, ularning faqat nazariy emas, balki amaliy yo'naltirilgan holda tashkil etilishi muhim ijtimoiy-pedagogik omil hisoblanadi [3; 247-b.].

Masalan, "Pedagogik etika", "Ma'naviyat asoslari", "Fuqarolik jamiyati" kabi fanlar doirasida axloqiy dilemmalarni muhokama qilish, real hayotiy vaziyatlarni tahlil etish orqali talabalarda axloqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi [7; 204-b.]. Bu esa ularning kelajakda pedagog sifatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkab axloqiy holatlarda to'g'ri yo'l tanlay olishlariga zamin yaratadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Loyihaviy faoliyat talabalarni mustaqil izlanishga, jamoada hamkorlik qilishga, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga yo'naltiradi. Masalan, talabalar tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma'rifiy loyihalar, maktablar yoki mahallalar bilan hamkorlikda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar, ehtiyojmand qatlamlar bilan ishlash kabi faoliyat turlari ularda rahmdillik, javobgarlik, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchi o'zini jamiyatning muhim a'zosi sifatida his qila boshlaydi, uning ma'naviy-axloqiy identiteti mustahkamlanadi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida talabalar guruhi ham muhim mikroijtimoiy muhit hisoblanadi. Guruhdagi o'zaro munosabatlar, norasmiy yetakchilarning

mavjudligi, jamoaviy faoliyatning yo'lga qo'yilgani bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-pedagogik omillar:

1	Oilaviy tarbiya muhiti	Oila shaxs ma'naviy-axloqiy shakllanishining dastlabki va eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. Oilada shakllangan qadriyatlar, odob-axloq me'yorlari, kattalarga hurmat, mas'uliyat va halollik kabi fazilatlar bo'lajak o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ola muhiti ma'naviy-axloqiy identitetning asosiy poydevorini yaratadi.
2	Ta'lim muassasadagi tarbiyaviy muhit	Oliy ta'lim muassasadagi ma'naviy muhit, professor o'qituvchilarning shaxsiy namunasi, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar talabalarda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Oliy ta'limda shakllangan ijobiy akademik madaniyat, o'zaro hurmat va mas'uliyat muhiti bo'lajak pedagog shaxsining ma'naviy kamolatiga xizmat qiladi.
3	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta'siri	Jamiyatdagi milliy an'analar, madaniy meros, urf-odatlar va umuminsoniy axloqiy tamoyillar bo'lajak o'qituvchilarning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Milliy ma'naviy merosni anglash, vatanparvarlik va insoniylik kabi fazilatlar ma'naviy-axloqiy identitetning muhim tarkubiy qismi hisoblanadi.
4	Ijtimoiy muhit va jamoatchilik ta'siri	Talabaniing do'stlar davrasi, talabalar jamoasi, ijtimoiy tashkilotlar va jamoatchilik muhiti ham uning axloqiy qarashlari shakllanishiga ta'sir etadi. Ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxs o'zini anglaydi, o'z pozitsiyasini shakllantiradi va jamoadagi axloqiy me'yorlarni qabul qiladi.
5	Pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan amaliy tajriba	Pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan amaliy tajriba, pedagogik amaliyot, maktablardagi kuzatuv va ta'lim jarayonidagi ishtirok bo'lajak o'qituvchining kasbiy va axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi. Amaliy tajriba orqali u pedagogik mas'uliyat, adolat, bag'rikenglik va o'quvchilarga nisbatan insoniy munosabat kabi fazilatlarni o'zlashtiradi.
6	Axborot makoni va ommaviy kommunikatsiyalar ta'siri	Zamonaviy axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoq, ommaviy axborot vositalari ham talabalarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi. Agar bu axborot makoni to'g'ri pedagogik yo'naltirilsa, u ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish va shaxsning ma'naviy kamolatiga xizmat qilishi mumkin.

Agar guruhda o‘zaro hurmat, hamjihatlik, adolat tamoyillari ustuvor bo‘lsa, talabalarda ijtimoiy mas’uliyat va jamoaviy fikrlash rivojlanadi. Bu esa kelajakda ularning pedagogik jamoada samarali ish olib borishlariga xizmat qiladi. Shuningdek, guruhda yuzaga keladigan nizolarni hal etish jarayoni ham talabalar uchun muhim axloqiy tajriba manbai hisoblanadi [5; 304-b.].

Oilaviy muhit va tarbiya an’analari ham ijtimoiy-pedagogik omillar tizimida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Garchi bo‘lajak o‘qituvchi oliy ta’lim bosqichiga yetgan paytda shaxs sifatida muayyan darajada shakllangan bo‘lsa-da, uning bolalik va o‘smirlik davrida olgan ma’naviy tarbiyasi keyingi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolaveradi. Oilada shakllangan halollik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr kabi qadriyatlar pedagogik ta’lim jarayonida yangi mazmun bilan boyiydi va kasbiy axloq bilan uyg‘unlashadi. Shu ma’noda, ta’lim muassasalari talabalarning oilaviy tajribasini inobatga olgan holda tarbiyaviy ishlarni individuallashtirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi ham bo‘lajak o‘qituvchilar ma’naviy-axloqiy identitetining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoq makoni orqali turli g‘oyalar, qadriyatlar, madaniy namuna va axloqiy me’yorlar tezkor tarqalmoqda. Bu holat bir tomondan, yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tomondan, ma’naviy tanlov murakkabligini oshiradi [7; 253-b.]. Shu sababli, pedagogik ta’lim jarayonida axborotni tanqidiy tahlil qilish, mediama’naviyat, raqamli axloq masalalariga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Bu orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot makonida ham o‘z ma’naviy pozitsiyasini saqlab qolish qobiliyati shakllanadi.

Ijtimoiy-pedagogik omillarning ta’siri milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligida namoyon bo‘lishi lozim. Milliy madaniyat, tarixiy xotira, an’analarga tayangan holda tarbiyalangan bo‘lajak o‘qituvchi umuminsoniy qadriyatlarni ham chuqur anglaydi va qabul qiladi. Bu uyg‘unlik uning ma’naviy-axloqiy identitetini mustahkamlab, globallashtirish sharoitida o‘z milliy o‘zligini saqlab qolgan holda jahon pedagogik hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta’minlaydi.

Ijtimoiy-pedagogik omillarning samarali ta’siri natijasida bo‘lajak o‘qituvchida axloqiy barqarorlik, kasbiy mas’uliyat, insonparvarlik, ijtimoiy faollik kabi sifatlar shakllanadi. Bu sifatlar uning kelajakdagi pedagogik faoliyatida asosiy tayanch nuqtalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ma’naviy-axloqiy identiteti shakllangan o‘qituvchigina o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki hayotiy qadriyatlar, to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq bera oladi.

Ma’naviy-axloqiy identitetning barqaror shakllanishida bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy faolligi va refleksiv qobiliyatlari ham muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiya shaxsga o‘z xatti-harakatlari, qarorlari va qadriyatlarini tahlil qilish, ularni ijtimoiy va axloqiy me’yorlar bilan solishtirish

imkonini beradi [6; 72-b.]. Pedagogik ta'lim jarayonida reflektiv muhit yaratilsa, talabalar o'zlarining ma'naviy qarashlari va kasbiy maqsadlarini ongli ravishda qayta ko'rib chiqadilar. Masalan, pedagogik amaliyotdan so'ng o'tkaziladigan tahliliy suhbatlar, esse va portfolio ishlari orqali talabalar o'z faoliyatiga axloqiy baho berishni o'rganadilar. Bu jarayonda ijtimoiy tajriba shaxsiy ma'naviy tajribaga aylanib, identitetning ichki tarkibiy qismi sifatida mustahkamlanadi.

Ijtimoiy-pedagogik omillar ta'sirining yana bir muhim jihati — ta'lim jarayonida demokratik munosabatlarning qaror topishidir. Agar ta'lim muhitida talabalar fikriga hurmat bilan yondashilsa, ularning tashabbuslari qo'llab-quvvatlansa, erkin muloqot va hamkorlikka sharoit yaratilsa, bo'lajak o'qituvchilarda shaxsiy qadr-qimmat hissi, o'z fikrini mas'uliyat bilan ifoda etish qobiliyati shakllanadi. Bu esa ularning ma'naviy-axloqiy identitetida mustaqillik, adolatparvarlik va javobgarlik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Aksincha, avtoritar muhitda shakllangan talabada tashqi itoatkorlik ustuvor bo'lib, ichki axloqiy pozitsiya yetarlicha rivojlanmasligi mumkin.

Pedagogik ta'limda tarbiyaviy ishlar tizimi ham ijtimoiy-pedagogik omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-ma'rifiy kechalar, davra suhbatlari, ma'naviyat soatlari, tarixiy va madaniy meros ob'ektlariga sayohatlar bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday tadbirlar orqali talabalar nafaqat bilim oladilar, balki jamoada o'zaro munosabatlar madaniyatini, umumiy qadriyatlarga sadoqatni his etadilar. Ayniqsa, milliy qahramonlar, ma'rifatparvarlar, buyuk pedagog va mutafakkirlar hayotiga bag'ishlangan tadbirlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faxr va ma'naviy mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Ijtimoiy adolat, tenglik va inklyuzivlik tamoyillarining ta'lim muhitida ta'minlanishi ham ma'naviy-axloqiy identitet shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli ijtimoiy qatlam va madaniy muhitdan kelgan talabalarning teng huquqli munosabatda bo'lishi, ularning imkoniyatlari cheklanmasligi, diskriminatsiya (kamsitish) holatlariga yo'l qo'yilmasligi bo'lajak o'qituvchilarda inson huquqlari va qadr-qimmatiga hurmat tuyg'usini shakllantiradi. Bu tajriba keyinchalik ularning maktab yoki boshqa ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ham asosiy axloqiy mezonga aylanadi.

Ijtimoiy-pedagogik omillarning ta'sirida bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy identitetning shakllanishi uzluksiz va bosqichma-bosqich jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda avval axloqiy bilimlar va tushunchalar o'zlashtiriladi, keyin ular shaxsiy ishonch va qadriyatlarga aylanadi, so'ngra esa amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi. Masalan, talabada adolat haqidagi nazariy tasavvur avval ma'ruza va adabiyotlar orqali shakllanadi, keyin guruhdagi munosabatlarda adolatli bo'lish orqali mustahkamlanadi, pedagogik amaliyotda esa o'quvchilarga teng munosabatda bo'lish shaklida namoyon bo'ladi. Ana shu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq

bo‘lib, ijtimoiy-pedagogik omillar ularning har birida muayyan rol o‘ynaydi [5; 304-b.].

Oliy ta‘lim muassasalari, umumta‘lim maktablari, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik talabalar uchun real ijtimoiy muhitda faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi. Bunday hamkorlik asosida tashkil etilgan tadbirlar va amaliyotlar bo‘lajak o‘qituvchilarda jamiyat oldidagi burch, ijtimoiy mas‘uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi.

Ma‘naviy-axloqiy identitetning chuqurlashuvida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini anglashi bilan ma‘naviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy o‘zini anglash faqatgina pedagogik bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan cheklanmay, balki o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyatini, ma‘naviy mas‘uliyatini va axloqiy mezonlarini chuqur idrok etishni ham o‘z ichiga oladi. Shu ma‘noda, ijtimoiy-pedagogik omillar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasiga ma‘naviy mazmun bag‘ishlaydi. Masalan, ta‘lim jarayonida o‘qituvchilik kasbining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, inson kamolotiga ta‘siri haqida muntazam mulohazalar yuritilishi talabalarda kasbga nisbatan faqat amaliy emas, balki ma‘naviy munosabatni ham shakllantiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma‘naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda tarbiyaviy ishlarning tizimliliigi muhim ijtimoiy-pedagogik shart hisoblanadi. Alohida o‘tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar muayyan ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, ammo ular tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etilmasa, kutilgan samarani bermaydi. Shu sababli, pedagogik ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning uzluksiz modeli ishlab chiqilishi lozim. Bu modelda ta‘lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy amaliyot va shaxsiy refleksiya o‘zaro uyg‘unlashgan holda amal qilishi talab etiladi. Ana shunda ijtimoiy-pedagogik omillar bir-birini to‘ldirib, bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy kamolotiga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, pedagogik ta‘lim jarayonida axloqiy tanlov va mas‘uliyatni talab etuvchi vaziyatlarni modellashtirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan samarali usul hisoblanadi. Keyc-stadi, rolli o‘yinlar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish kabi metodlar orqali talabalar real hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan axloqiy muammolarga tayyorlanadilar. Bu usullar talabalarda axloqiy mulohaza yuritish, o‘z qarorining oqibatlarini anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada, ijtimoiy tajriba ichki ma‘naviy pozitsiyaga aylanib, identitetning mustahkam asosini tashkil etadi.

Ijtimoiy-pedagogik omillar ta‘sirida shakllangan ma‘naviy-axloqiy identitet bo‘lajak o‘qituvchining fuqarolik pozitsiyasi bilan ham uzviy bog‘liq. Fuqarolik pozitsiyasi jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga befarq bo‘lmaslik, qonunlarga hurmat, ijtimoiy adolatni qo‘llab-quvvatlash kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida talabalarni jamoat ishlariga jalb etish, ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-

quvvatlash orqali ularda faol fuqarolik ongi shakllanadi. Bu esa ma'naviy-axloqiy identitetning ijtimoiy mazmunini yanada boyitadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy identitetni shakllantirishda milliy va diniy bag'rikenglik, madaniyatlararo muloqotga ochiqlik kabi omillar ham alohida ahamiyatga ega. Ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyat sharoitida o'qituvchi turli qarash va qadriyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlaydi. Shu bois, pedagogik ta'lim jarayonida talabalarda bag'rikenglik, o'zaro hurmat va muloqot madaniyati shakllantirilishi lozim. Bu sifatlar ham ijtimoiy-pedagogik omillar ta'sirida rivojlanib, ma'naviy-axloqiy identitetning ajralmas qismiga aylanadi [4; 243-b.].

Shaxsning ma'naviy-axloqiy identiteti faqat ijtimoiy ta'sirlar natijasi emas, balki uning ichki ma'naviy ehtiyoji bilan ham belgilanadi. Ijtimoiy-pedagogik omillar ana shu ichki ehtiyojni qo'zg'atuvchi va rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Agar ta'lim muhiti talabaning ma'naviy izlanishlariga sharoit yaratsa, u o'z qadriyatlarini chuqur anglaydi, ularni hayotiy maqsadlari bilan bog'laydi. Bu holatda ma'naviy-axloqiy identitet tashqi talab emas, balki shaxsiy ehtiyoj sifatida qaror topadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda yuqorida aytib o'tilgan omillarning ilmiy asoslangan holda tashkil etilishi va amaliyotga tatbiq etilishi pedagogik ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, mazkur jarayonning muvaffaqiyati ta'lim siyosati, pedagogik jamoa va shaxs faolligining o'zaro uyg'unligiga bog'liq bo'lib qolaveradi.

Ijtimoiy-pedagogik omillar ta'sirida shakllanayotgan ma'naviy-axloqiy identitetning muhim belgilaridan biri — uning ichki muvofiqligi va izchilligidir. Ichki muvofiqlik deganda, bo'lajak o'qituvchining fikrlari, qadriyatlari va amaliy xatti-harakatlari o'rtasidagi uyg'unlik tushuniladi. Agar shaxs axloqiy me'yorlarni nazariy jihatdan qabul qilsa-yu, ammo amaliyotda ularga rioya etmasa, bunday holatda identitetning to'liq shakllangani haqida so'z yuritish qiyin. Shu bois, pedagogik ta'lim jarayonida talabalarni faqat axloqiy bilimlar bilan ta'minlash emas, balki ularni amaliyotda qo'llashga undaydigan ijtimoiy-pedagogik muhit yaratish zarur. Bu muhitda har bir talabaning axloqiy pozitsiyasi sinovdan o'tadi va mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tojiyev M., Qodirov M., Ashurov N. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash – ta'lim sifati va samaradorligining kafolati // “Ta'lim, fan va innovatsiya” jurnali. – Toshkent, 2018
2. Tojiboyeva D. Global miqyosda ta'lim rolining ortishi va o'qituvshi-pedagoglarga qo'yiladigan zamonaviy talablar // Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie. – Toshkent, 2017

3. Usmonov B.Sh., Qodirov M.Q, J.D.Eltazarov, “Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli”. Monografiya. – SamDU nashriyoti 2023. – 180 b.
4. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.
5. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010.
6. Ochildiyev A. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. Toshkent, «Ijod dunyosi», 2002 yil. – 29 b.
7. Muslimov N.A., Sh.S.Sharipov va boshqalar. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv materiallari. – Toshkent: TDPU, 2009. – 69 b.
8. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat. –T.: 2006, 62-70- b.